



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

21-avgust 2026-yil.

23-160-son

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonuni, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” Qonuni hamda ISO 37001:2025 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari. Talablar va foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan asosiy talablarni kuchaytirish va tamoyillarni aniq belgilash, iqtisodiyot va moliya organlari xodimlari tomonidan o‘z faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik va bu borada tizim samaradorligini yanada oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda vazirlikning hududiy bo‘linmalari rahbarlariga:

mazkur Siyosat mazmun-mohiyatini barcha xodimlariga **uch kun muddatda** yetkazish;

xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini to‘laqonli o‘rganib chiqilishini tashkillashtirib, tasdiqlangan holatlar bo‘yicha mas‘ul xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash muqarrarligini ta‘minlash;

korrupsion holatlarga murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida doimiy ravishda profilaktik tadbirlarni o‘tkazib borish vazifalari yuklansin.

3. Vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda vazirlikning hududiy bo‘linmalari rahbarlari besh kun muddatda ichki hujjatlarini mazkur buyruqqa muvofiqlashtirish choralarini ko‘rsin.

4. **Komplayens xizmati boshqarmasi** (A. Azimov)ga vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni amalga oshirilishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish, korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish, shaffoflikni ta'minlash, affillanganlik hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini amalga oshirish, ularning oldini olish yuzasidan belgilangan tartibda tekshiruvlar o'tkazilishini va qat'iy javobgarlik choralari ko'rilishini tashkil etish vazifasi yuklansin.

5. **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti** (S. Axmedov) vazirlik markaziy apparatiga ishga qabul qilingan har bir xodimni mazkur Siyosat talablariga rioya etishi yuzasidan imzo qo'ydirgan holda tanishtirib borsin.

6. **Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi** (A. Akramov) mazkur buyruqni bir kun muddatda vazirlik markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda vazirlikning hududiy bo'linmalariga yetkazish choralarini ko'rsin

7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 31-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilash to'g'risida" 85-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha o'rinbosari J. Qurbonov zimmasiga yuklansin.

V a z i r



D. Kuchkarov

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligining
2026 yil 21- avgustdagi
23-160-son buyrug‘iga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) xodimlar orasida hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish uchun yuqori axloqiy me‘yorlar tarafdori ekanligi, shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda vazirlikning hududiy bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda – vazirlik tizimi) xodimlari o‘z faoliyatida korrupsion huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda bo‘lishi va sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikni qo‘llab-quvvatlashini namoyon etadi.

2. Mazkur Siyosat **ISO 37001:2025 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari. Talablar va foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar”** xalqaro standarti talablarini inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va yetakchi xalqaro amaliyot asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

vazirlik tizimida korrupsion xavf-xatarlarni tizimli ravishda minimallashtirish, aniqlash va bartaraf etish samaradorligini doimiy oshirib borish;

aholining iqtisodiy va moliyaviy jabhalarda huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

vazirlik tizimi faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsion huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, uning oqibati, sabab va omillarini bartaraf etish, korrupsion jinoyatlarni sodir etganlik uchun jazoning muqarrarliligi prinsipini ta‘minlash.

4. Siyosat vazirlikning ichki hujjati sifatida yuqorida ko‘rsatilgan asosiy maqsadlarga erishish uchun vazirlik tizimi tashkilotlari faoliyatida korrupsiya bilan

bog‘liq huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilab beruvchi asos hisoblanadi.

5. Siyosat talablari egallab turgan lavozimi, bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat’i nazar, vazirlik bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan barcha xodimlar uchun majburiy hisoblanadi, jumladan, vazirlik tizimi tashkilotlari xodimlariga tatbiq etiladi.

Vazirlik tizimi tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs mazkur Siyosat bilan imzo qo‘yilgan holda tanishishi va uning qoidalariga rioya qilishga majbur.

6. Siyosatda quyidagi asosiy tushuncha va atamalar ishlatiladi:

ish jarayonidagi mehmondo‘stlik belgilari – vazirlik tizimi xodimlari manfaatlarida faoliyat davomida hamkorlik ko‘rsatish va (yoki) qo‘llab-quvvatlashga aloqador xarajatlar, jumladan, ishbilarmonlik bilan bog‘liq ovqatlanish, transport va yashash xarajatlarini qoplash bilan bog‘liq xarajatlar va h. k.;

kontragent (shartnomaviy sherik) – vazirlik tizimi bilan shartnomaviy munosabatlarga (*mehnat munosabatlari bundan mustasno*) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korruptsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaviy xavf-xatar – vazirlik tizimi xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan vazirlik tizimi nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korruptsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi;

korruptsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani, ya’ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va’da qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaga qarshi kurashish talablari buzilganligi to‘g‘risida vijdonan xabar berish – vazirlik tizimi xodimi tomonidan korruptsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi (*sodir etishga suiqasd qilinganligi*) to‘g‘risida ruxsat etilgan aloqa kanallari orqali asosililigiga ishonch hosil qilgan holda yo‘llagan murojaat;

korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi – qo‘llaniladigan amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarning korruptsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, vazirlik tizimi

xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash chora-tadbirlari majmui;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik – korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar – belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta'minlash yoki tezlashtirish, tegishli qonunchilik normalari va qoidalarida nazarda tutilmagan harakatlar sodir etish uchun g'ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy naf;

xodim – vazirlik tizimida mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – vazirlik tizimi xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

2-bob. Korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

7. Vazirlik tizimi korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiradi:

qonuniylik – vazirlik tizimi korruptsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda hamda davlat organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tan olingan xalqaro amaliyotni hisobga olib amalga oshiradi;

korruptsiyaga nisbatan murosasizlik – vazirlik tizimi faoliyatining barcha sohalarida korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladi. Xodimlarning har qanday korruption xavf kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi taqiqlanadi;

ochiqlik va shaffoflik – vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

haqida shaxsiy tarkib va kontragentlar, shuningdek, keng jamoatchilik doimiy xabardor qilib boriladi;

preventivlik – vazirlik tizimi korrupsion xatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsion xavf vujudga kelishiga sabab bo‘ladigan shart-sharoit hamda omillarni bartaraf etishga qaratilgan ogohlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beradi;

tizimlilik – korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar vazirlik tizimi faoliyatining barcha yo‘nalishlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi;

jamoatchilik nazorati – vazirlik tizimida yuklatilgan vazifalarni shaffoflik va xolislik asosida bajarishini ta‘minlash maqsadida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni baholash uchun jamoatchilik vakillari jalb qilinadi;

korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi – korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etgan vazirlik tizimi xodimlari o‘zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat’i nazar vazirlikning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish – vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratishda ilm-fan taraqqiyotining so‘nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishga intiladi;

to‘g‘ridan to‘g‘ri rahbariyatga murojaat qilish – vazirlik tizimining har bir xodimi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi to‘g‘risida ishonchli va asosli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda belgilangan choralarni ko‘rish uchun tegishli vazirlik markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo‘linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlariga to‘sqinliksiz murojaat qilishi mumkin;

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorlik – vazirlik o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda vazirlik tizimi faoliyatini halollik, xolislik va mustaqil nazorat qilish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida vazirlik o‘z tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini muntazam ravishda oshirish choralarni ko‘radi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari

8. Korrupsiyaga “mutlaqo murosasizlik” tamoyiliga tayangan holda vazirlik tizimining barcha xodimlariga korrupsiya bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatlarda ishtirok etishi, ya’ni pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishi yoki

harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya'ni pullar, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tushdagi xizmatlarni berishni talab qilish, tovlamachilik qilish, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, shaxs tomonidan pora olish yoki g'ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanishi qat'iy taqiqlanadi.

9. Quyidagilar vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosiy elementlari hisoblanadi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashishni nazarda tutuvchi ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi.

Bunda, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosini:

mazkur Siyosat;

vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari;

vazirlikning Ichki mehnat tartibi qoidalari;

vazirlik tizimiga xizmatga qabul qilishda tanlovlar o'tkazish, xizmatga qabul qilish va boshqa doimiy ishga o'tkazish tartibi;

vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha nizom;

vazirlik tizimida xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi;

boshqa taalluqli ichki idoraviy hujjatlarda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

b) Yuqori darajadagi rahbarlarning siyosiy irodasi.

Vazirlik rahbariyati, shuningdek, tarkibiy tuzilmalar rahbarlari bo'ysunuvidagi xodimlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda halol, adolatli munosabatda hamda namunaviy xulq-atvorga ega bo'lishlari kerak.

Iqtisodiyot va moliya vaziri hamda uning o'rinbosarlari, vazirlik tizimi rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali siyosiy irodani namoyish etadi:

Vazirlik faoliyatida korrupsion xavf mavjud vazifalar, sohalar va funksiyalarni boshqarishda samarali chora-tadbirlar va tartiblarni joriy etishda, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini (*yo 'l xaritasini*) ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilishda tashabbuskor bo'lishi;

o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasida, vazirlik tizimi xodimlarida korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirgan holda huquqiy nigilizm, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilishi;

xodimlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan muloqotda axloqiy xulq-atvor yuzasidan shaxsan namuna sifatida namoyon bo'lishi lozim.

v) Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslar va bo'linmalar.

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsion xavfni aniqlash va baholash vazirlikning Komplayens xizmati boshqarmasi tomonidan tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonga vazirlik tizimi rahbarlari hamda boshqa taalluqli tarkibiy tuzilmalari ham faol jalb etiladi.

Vazirlikning Komplayens xizmati boshqarmasi o'z vazifalarini amalga oshirishda yetarli darajada mustaqillikka va resurslarga ega bo'lib, bevosita Iqtisodiyot va moliya vaziriga hamda vazirning komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'rinbosariga bo'ysunadi.

Komplayens xizmati boshqarmasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining farmoyishi bilan tasdiqlangan "Komplayens xizmati to'g'risida nizom"ga muvofiq amalga oshiradi.

Komplayens xizmati boshqarmasi:

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki siyosatni amalga oshirilishi hamda ushbu sohadagi faoliyat muvofiqlashtirilishida bevosita ishtirok etadi;

vazirlik faoliyatida korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar hamda nazorat tizimi joriy etilishini ta'minlaydi;

vazirlik tizimida qonunga rioya etish, unga nisbatan hurmat ruhini mustahkamlash, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish va bu borada aholining ijobiy fikrini shakllantirish choralari ko'radi;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish va baholash, bartaraf etish va ularning oldini olish bo'yicha zarur choralarni ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirib borish choralari ko'radi;

vazirlik tizimi faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, affillanganlik hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi nazorat tizimini amalga oshiradi;

vazirlik tizimida korrupsiya holatlari hamda ularning oldini olish yuzasidan belgilangan tartibda tekshiruvlar o'tkazilishini hamda qat'iy javobgarlik choralari ko'rilishini tashkil etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Komplayens xizmati boshqarmasi hamda uning hududiy bo'limlari xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va (*manfaatlar to'qnashuvi tartibga solinmagan taqdirda*) uni hal qilish yoki aniqlangan holatlarni tartibga solish choralari ko'radi.

Vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq, yangi ishga qabul qilinganda va lavozim o'zgarganda to'ldiriladigan deklaratsiyalarni tahlil qilish maqsadida vazirlik markaziy apparatining xodimlari hamda ularga aloqador shaxslarning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi deklaratsiyalarni umumlashtiradi hamda Komplayens xizmati boshqarmasining so'roviga asosan mazkur deklaratsiyalarni taqdim etib boradi.

g) Korrupsion xavfni aniqlash va baholash.

Vazirlik tizimi korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishini hisobga olgan holda faoliyatida ko'lam va ta'sir qilish darajasidan qat'i nazar korrupsion xavfni boshqarish zaruratini tan oladi.

Vazirlik tizimi faoliyatining barcha sohalari korrupsion xavfga ko'proq uchraydigan soha (funksiya, yo'nalish)larni aniqlash maqsadida tizimli tahlildan o'tkaziladi.

Shunga ko'ra, vazirlik tizimi faoliyati, tarkibiy tuzilmalari, sohalari va bajarilayotgan funksiyalariga xos hamda boshqa ichki va tashqi omillarga bog'liq holda korrupsion xavfni aniqlaydi hamda baholaydi.

Korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonida Komplayens xizmati boshqarmasining boshchiligi hamda nazorati ostida vazirlik markaziy apparati mustaqil tarkibiy tuzilmalari rahbarlari va mas'ul xodimlari, korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi shaxslar ishtirok etadi.

Korrupsion xavflarni tizimli baholash yiliga kamida ikki marta, shuningdek, quyidagi holatlarda navbatdan tashqari baholash o'tkaziladi:

vazirlik tuzilmasi yoki funksiyalari o'zgarganda;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik aniqlanganda;

qonunchilikda muhim o'zgarishlar bo'lganda;

Komplayens xizmati boshqarmasi boshlig'i tashabbusi bilan.

Baholash natijalari vazir va tegishli rahbarlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Aniqlangan xavflarni boshqarish, minimallashtirish hamda uning asosiy omillarini bartaraf etish choralari vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlari, ish rejalari yoki yo'l xaritalarida aks ettiriladi.

d) *Aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan choralar.*

Vazirlik tizimi o'z faoliyatidagi korrupsion xavflarni boshqarish, umumiy nazorat muhitini yaratish va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarini o'z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy etadi.

Vazirlik tizimi korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilish va tartib-taomillarning samaradorligi, jumladan, ularning aniqlangan xavf darajasiga mutanosibligi, o'z xodimlari uchun qat'iyligi va aniqligi, keng jamoatchilik uchun shaffofligini ta'minlaydi.

Korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazorat choralari va tartib-taomillar vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha me'yoriy hujjatlarida (*chora-tadbir, ish reja, yo'l xaritasi*) aks ettiriladi.

e) *Xabardor qilish va maslahat berish.*

Korrupsion xavfni kamaytirish va vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablarini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida, mazkur Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari bilan tanishtirish maqsadida:

vazirlik tizimi xodimlarini har yili kamida bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha doimiy va tizimli o'qitish, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni ushbu Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar bilan majburiy tartibda tanishtirish bilan birgalikda ular korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarda o'qitiladi;

yuqori korrupsion xavfga ega lavozimlar uchun yiliga kamida ikki marotaba qo'shimcha o'qitish o'tkaziladi;

o'qitish dasturlari amaliy keyslar, vazirlik tizimida aniqlangan real holatlar tahlili va interaktiv treninglardan iborat dasturlar asosida olib boriladi;

o'qitishdan o'tgan xodimlar bilimlari test orqali baholanadi, natijalar kadrlar bazasida saqlanadi;

vazirlik tizimi xodimlari va fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish maqsadida audio va videoroliklar hamda boshqa axborot ma'lumotlaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlar tashkil etiladi;

vazirlik tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar bo'yicha xabar berilishi mumkin bo'lgan aloqa kanallari tashkil qilinadi;

Komplayens xizmati boshqarmasi mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini va tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq savollar kelib chiqqanda tizim xodimlariga maslahat beradi;

vazirlik tizimi xodimlarining mehnat shartlari tarkibiga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari kiritiladi;

xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishda lozim bo'lgan xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshiriladi;

kontragentlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan talablar va tamoyillar haqida, shu jumladan, ular bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan maxsus shartlar kiritilishi to'g'risida xabardor qilinadi va hokazo.

j) Monitoring, nazorat va hisobot.

Vazirlikning Komplayens xizmati boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishini, mutanosibligini va samaradorligini baholaydi hamda doimiy monitoringini olib boradi.

Monitoring natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralarni ko'radi.

Vazirlik tizimida monitoring va nazorat qilishning quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

ichki va tashqi omillarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ta'sirini o'rganish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga o'zgartirish kiritish zaruriyatini tahlil qilish, shu jumladan, uni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash;

samarasiz tartib-taomillarni aniqlash, tegishli o'zgartirishlar kiritish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida tanlov asosida funksiyalar va ichki jarayonlarni monitoring qilish;

ichki va (yoki) tashqi tekshiruvlarni o'tkazish jarayonida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablarga rioya qilishini nazorat qilish va boshqalar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish va monitoringi bo'yicha chora-tadbirlar natijalari vazirlik Hay'ati majlislarida, shuningdek, vazir topshirig'iga asosan vazir boshchiligida va vazirning komplayens bo'yicha o'rinbosari tomonidan o'tkaziladigan xizmat yig'ilishlarida muhokama qilinishi mumkin.

z) Huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish.

Mazkur Siyosatga va vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarga rioya qilish har bir xodim uchun majburiydir. Vazirlik tizimi har bir xodimi belgilangan talablarni buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Tarkibiy tuzilmalar rahbarlari o'z bo'ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishining oldini olishga mas'ul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan talablar, tartib-tamoyillarni buzgan har bir xodim O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Xodimlar ularni korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday faktlar haqida o'z rahbarlariga, Komplayens xizmati boshqarmasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishlari shart.

Komplayens xizmati boshqarmasi tomonidan xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog'liq har qanday asosli shubha bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibga asosan xizmat tekshiruvlari o'tkaziladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalarini, mazkur Siyosat va boshqa ichki idoraviy hujjatlarda belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan xodimlar, ularning lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda vazirlikning ichki idoraviy hujjatlarida belgilangan normalar asosida javobgarlikka tortiladilar.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlar tahlil qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi doimiy ravishda takomillashtirib boriladi.

Vazirlik, shu jumladan, Komplayens xizmati boshqarmasi korrupsiyani aniqlash va tekshirishda, vakolat doirasida huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari

1-§. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish

10. Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini nazorat qilish bo'yicha mas'ul tuzilma Komplayens xizmati boshqarmasi hisoblanadi.

Vazirlik tizimi xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va (yoki) vazirlik manfaatlarini ifodalash doirasida O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" va "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunlarida belgilangan cheklovlarga rioya qilishi, shuningdek, vijdoniylik, halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlari yo'lida xizmat mavqeidan va (yoki) vazirlikning mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

Vazirlik tizimi xodimlarining o'z xizmat majburiyatlarini lozim darajada va xolis bajarishlariga, jumladan, xolis qaror qabul qilishga hamda vazirlikning huquqlari, qonuniy manfaatlari, mol-mulki va (yoki) nufuziga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi.

Vazirlik tizimining har bir xodimi xizmat vazifalarini bajarish chog'ida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi ehtimoli mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqida o'zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berishi shart.

11. Vazirlik nomzodlarni ishga qabul qilishda, boshqa lavozimga o'tkazishda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishga majburdir.

12. Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni va ichki hujjatlar asosida tartibga solinadi.

13. Komplayens xizmati boshqarmasi tomonidan xodimlar va ularga aloqador shaxslari o'rtasida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini muntazam ravishda avtomatlashtirilgan tizimlar orqali monitoring qilib boradi.

2-§. Sovg'alar va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari

14. Vazirlik tizimi xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki mehmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag'batlantirish vositalari, naqd pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi.

15. Xodimlar tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan, xorijiy xizmat safarlarida olingan sovg'alarning olinishi va tasarruf etilishi "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek, uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3425, 2023-yil 13-martda)ga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Vazirlik tizimi jamoasi tomonidan xodimlarga ularning shaxsi bilan bog'liq bayram kunlarida (*tug'ilgan kun, nikoh qurish, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari*

kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni va hokazo) berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishga bog'liq bo'lmagan sovg'alar – xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar, deb tan olinadi.

Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

sogv'alar kamida uch nafar xodimlar ishtirokida berilishi lozim;

sogv'a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi kerak;

sogv'aning umumiy qiymati 4 (to'rt) bazaviy hisoblash miqdoridan oshmasligi kerak.

Bir xodimning boshqa xodimga sovg'a uchun sarflaydigan xarajat summasi, har bir holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravaridan oshmasligi shart.

17. Vazirlik tizimining har bir xodimi shaxsi bilan bog'liq bayram kunlari (*Siyosatning 16-bandida qayd etilgan*) munosabati bilan ham boshqa davlat idoralari, jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan har qanday ko'rinishdagi sovg'alar, boshqa moddiy va nomoddiy qimmatliklarni olishi taqiqlanadi.

18. Xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa xizmatga oid ishbilarmonlik yig'ilishlarida Iqtisodiyot va moliya vazirligi nomidan sovg'alar berish vazir yoki uning tegishli o'rinbosarlari buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

19. Sovg'a qabul qilishning qonuniyligi bo'yicha shubha tug'ilgan har qanday holatda xodimlar Komplayens xizmati boshqarmasi yoki uning hududiy bo'limlariga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

3-§. Xodimlarni tanlash, lavozimdan lavozimga o'tkazish, moddiy rag'batlantirish

20. Xodimlarni tanlash, ularni attestatsiyadan o'tkazish va faoliyatini baholash, shu jumladan, mukofot pullarini to'lash, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo'lib, ushbu Siyosatning tamoyillari va talablariga muvofiq kelishi lozim.

21. Vazirlik tizimida rahbar va xodimlarni mukofotlashga asos bo'lib xizmat qiladigan, ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Ushbu ko'rsatkichlar xolis, oshkora hamda tizim xodimlari tomonidan ko'rib chiqish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi shart.

4-§. Tekshirishlarni o'tkazish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini o'rganish

22. Turli xil tekshirishlarni o'tkazish hamda davlat organlari va tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda – tekshirish obyekti) faoliyatini o'rganishda vazirlik tizimi organlari xodimlari:

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi;

obyektni tekshirish yoki o'rganish bir nafar xodim tomonidan amalga oshirilmasligi;

sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni soxtalashtirish uchun tekshirish obyekti vakillarining yetarli bilimga ega emasligidan foydalanib qonun hujjatlari normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, ularni aniqlangan faktlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilishi bilan qo'rqitmasligi;

tekshirilayotgan obyektning xodimlariga tahdid qilmasligi;

tekshirish predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi va ortiqcha hujjatlarni so'ramasligi;

tekshirish davomida aniqlangan har bir huquqbuzarlik holatlariga qonuniy va professional baho berishi;

agar tekshirish obyekti vakillari xodimlarga aniqlangan qonunbuzarliklarni yashirish uchun pora yoki biron-bir moddiy va nomoddiy qimmatlik yoki xizmatlarni taklif qilsa tekshirish guruhi rahbari va Komplayens xizmati boshqarmasi xodimlarini bu haqida darhol xabardor qilishi;

tekshirish obyekti vakillariga nisbatan xodimlarning axloqiy xulq-avtor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

23. Xizmat majburiyatiga davlat organlari va tashkilotlarini tekshirish vazirlik tizimi organlarining tarkibiy tuzilmalarida o'tkazilgan tekshirish yoki o'rganish natijalari bo'yicha vazirlik tizimi organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan nizolashish uchun apellyatsiya instansiyalari tashkil etiladi.

5-§. Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar

24. Vazirlik tizimi organlari ushbu Siyosatning tamoyillari va talablariga zid bo'lgan har qanday to'lovlar va (yoki) shu kabi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi mahsulot yetkazib beruvchilarni, pudratchilarni va boshqa uchinchi tomonlarni jalb qilmaydilar.

25. Vazirlik tizimi organlari kontragentlar bilan munosabatlarda o'z faoliyatini amalga oshirishida qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladilar. Vazirlik tizimi organlari tanlashning xolis mezonlaridan foydalanishga asoslangan, mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlab olishning haqqoniy, ochiq va shaffof jarayonini hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va sotib olinadigan mahsulotning vazirlik tizimining ichki hujjatlari bilan tartibga solinadigan bahosini aniqlashning shaffof tartibini ta'minlaydilar.

26. Vazirlik tizimi organlari kontragent bilan o'zaro hamkorlikda:

a) kontragentning ishonchliligini quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiradilar:

davlat reyestrlarida ro'yxatga olinganligi va faoliyat muddati;

benefitsiar egalari va ularning vazirlik xodimlari bilan yaqin qarindoshlik aloqalari mavjudligi;

kontragentlarga nisbatan joriy etilgan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi;

soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

so'nggi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti yoki so'nggi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi (yirik bitimlar uchun);

boshqa buyurtmachilar oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarishi yuzasidan ma'lumotlar;

b) shartnoma summasi bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravari va undan oshgan hollarda kengaytirilgan tekshirish o'tkaziladi, jumladan, kontragentning affillangan shaxslari, avvalgi loyihalari va obro'si tahlil qilinadi;

v) tekshirish natijalari yozma shaklda rasmiylashtiriladi va shartnoma hujjatlari bilan birga saqlanadi.

Bo'lajak kontragentni (*tanlov, tender g'olibini va to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid kontragentini*) o'zining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari haqida ular bilan tuziladigan shartnomalar matniga maxsus shartlarni qo'shgan holda xabardor qiladi va tanishtiradi.

27. Vazirlik tizimi amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylikni qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olgan paytda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmasligi, mablag'lar qonunda yoki shartnomada belgilangan maqsadlar uchun samarali sarflanishi ta'minlanishi shart, shuningdek, bu haqda rasmiy veb-sayt orqali jamoatchilikka oshkor qilinishi mumkin.

6-§. Vazirlik tizimi organlari faoliyatini videotasvirga olish va translyatsiya qilish

28. Vazirlik tizimida xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun xizmat xonalarida video va audio yozuv kameralari joylashtirilishi, ularning yozuvlari vazirlik tizimi organlarining mas'ul xodimlari tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilishi mumkin.

29. Vazirlikning rasmiy veb-saytiga korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtirilishi mumkin (*ishga qabul qilishda nomzodlar bilan suhbat va ularni sinovdan o'tkazish jarayonlari, komissiya yig'ilishlari, attestatsiya komissiyasi va boshqalar*).

30. Vazirlik tizimida korrupsion xavflarni aniqlash uchun quyidagi raqamli vositalar joriy etiladi:

- a) davlat xaridlari jarayonlarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish (boshlang'ich narxlarni aniqlash va bir kontragentga takroriy shartnomalar);
- b) murojaatlar va tekshiruvlar bo'yicha yagona elektron reyestr yuritish ;
- v) korrupsion xavf indikatorlari bo'yicha avtomatik ogohlantirish tizimi;

7-§. Ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

31. Ichki idoraviy hujjatlar ularda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratadigan korrupsiyaviy omillar kelib chiqishini oldini olish, aniqlash va istisno qilish maqsadida huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi.

8-§. Vazirlik tizimi organlari xodimlariga maslahat berish

32. Vazirlik tizimi organlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari talablari, ushbu Siyosat qoidalari yoki vazirlik tizimi organlarida korrupsiyaga qarshi boshqa chora-tadbirlar va tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan har qanday savollar bo'yicha o'zlarining tuzilma rahbarlari, **Komplayens xizmati boshqarmasi** mas'ul xodimlari hamda vazirlikning ishonch telefoniga murojaat qilishlari mumkin.

9-§. Xizmatdan keyingi cheklovlar

33. Vazirlik tizimining yuqori korrupsion xavfga ega lavozimlar ro'yxatiga kiritilgan xodimlari ishdan bo'shagandan so'ng 2 (ikki) yil davomida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasining xulosasi olinmagan taqdirda xodimni bevosita yoki bilvosita nazorat ostida bo'lgan tashkilotga ishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

34. Yuqori korrupsion xavfga ega lavozimlar ro'yxati Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti (ro'yxat raqami 3383, 2022-yil 31-avgust)ga muvofiq vazirlik rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

35. Vazirlik tizimining davlat fuqarolik xizmatchisi hisoblanadigan xodimlari qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari hamda mol-mulki to'g'risida deklaratsiya taqdim etishi shart.

5-bob. Korrupsion huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish

36. Vazirlik tizimi xodimlari va boshqa shaxslar, agar ularda xodimlar xatti-harakatlarining qonuniyligiga, odob-axloq normalariga rioya qilishiga shubha tug'lsa, shuningdek, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir etishiga gumon yoki sodir etilganligi faktlari bo'lsa, ular bu haqda vazirlikning foydalanishi mumkin bo'lgan aloqa kanallari orqali xabar berishlari mumkin.

37. Vazirlik o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbuzarlik to'g'risida ishonchli ma'lumot bergan shaxsning maxfiyligini ta'minlaydi (qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

38. Vazirlik o'z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladi va qasos olishga qaratilgan harakatlarga, shu jumladan, ishdan bo'shatish, lavozimni pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish, vazirlik tizimining boshqa xodimlarining shubhali harakatlari yoki ular tomonidan ushbu Siyosatning korrupsiyaga qarshi talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarni ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlaydi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni quyidagi aloqa kanallari orqali berish mumkin:

vazirlik tizimi organlari tomonidan o'rnatilgan ishonch va boshqa telefon raqamlari;

telegram tarmog'idagi maxsus bot;

Komplayens xizmati boshqarmasi telefonlari;

vazirlikning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limidagi alohida anonim xabar berish kanali;

vazirlik tizimi organlarining elektron pochta manzillari;

to'g'ridan to'g'ri huquqni muhofaza qiluvchi organlarga.

39. Vazirlik tizimining aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va vazirlikning ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq mas'ul bo'linma yoki xodim tomonidan xolis tarzda va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi.

40. Korrupsion holat haqida xabar qilgan xodim himoyaga olinadi hamda uni qasddan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish hamda ta'qib qilish kabi holatlarga yo'l qo'yilmasligi kafolatlanadi.

41. Xabar bergan shaxsni qasddan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish hamda ta'qib qilish kabi holatlarga yo'l qo'yilganda:

a) xodim 3 ish kuni ichida Komplayens xizmati boshqarmasiga yozma shaklda xabar beradi;

b) Komplayens xizmati boshqarmasi 5 ish kuni ichida holatni tekshiradi;

v) shaxsni qasddan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish hamda ta'qib qilish kabi holatlar tasdiqlangan taqdirda, qasos oluvchiga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi;

g) jabrlanuvchi xodimning huquqlari qonunchilikda belgilangan tartibda tiklanadi (lavozimi, ish haqi, boshqa imtiyozlari);

d) har chorakda xabar beruvchilarga nisbatan ko'rilgan himoya choralari to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumot (mavjud bo'lgan hollarda) Iqtisodiyot va moliya vaziriga taqdim etiladi.

42. Shaxsini oshkor qilmaslik sharti bilan korrupsion holat haqida xabar qilgan xodimni shaxsi oshkor bo'lgan taqdirda, uning roziligi bilan proaktiv himoya choralari (vaqtincha boshqa bo'linga o'tkazish, uning faoliyatini baholash jarayonlarini Komplayens xizmatining bevosita nazoratiga olish) qo'llanilishi mumkin.

43. Anonim murojaatlar bo'yicha Komplayens xizmati boshqarmasi 10 ish kuni ichida dastlabki o'rganishni amalga oshiradi.

Dastlabki o'rganish natijasida yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, xizmat tekshiruvini o'tkaziladi.

Anonim murojaatning faqat anonimligi sababli ko'rib chiqishdan bosh tortilishi taqiqlanadi.

44. Vazirlik tizimi xodimi tomonidan korrupsion holat haqida qasddan yolg'on ma'lumot taqdim etilishi vazirlik odob-axloq qoidalarining buzilishi deb baholanadi hamda unga nisbatan ichki idoraviy hujjatlarga muvofiq tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi.

45. Vazirlik tizimida mavjud korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlar, agar bu ma'lumotlar tasdiqlangan bo'lsa, belgilangan tartibda rag'batlantiriladi.

6-bob. Samaradorlik ko'rsatkichlari

46. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-81-son qaroriga asosan har yarim yilda baholanadi.

7-bob. Javobgarlik

47. Mazkur Siyosat vazirlik tizimining barcha darajadagi rahbar hamda xodimlari uchun majburiy xarakterga ega bo'lib, ular Siyosat va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilmagan, korrupsion holatlarga yo'l qo'ygan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

48. Ushbu Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va unga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi siyosat va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zarurati kelib chiqqanda;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgarganda;

oʻtkazilgan tahlillar natijasida samarasiz tartib va taomillar aniqlanganda hamda vazirlik tizimi faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga zarurat tugʻilganda;

vazirlikning tashkiliy tuzilmasi va (yoki) vazifalarning bajarish xususiyatlari va boshqalar oʻzgarganda.